


Universitetning “Xorijiy filologiya”, “O‘zbek filologiya”, “Axborot texnologiyalari” “Tabiiy fanlar”, “Fizika-matematika”, “Kimyo”, “Sport faoliyati”, “Tarix”, “Iqtisodiyot” va “Ijtimoiy fanlar” fakultetlari professor-o‘qituvchilari va talaba yoshlari ishtirokida davra suhbatlari tashkil etildi.

Joriy yilning 4-, 11-, 17- va 18-aprel kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida joriy yil 5-mart kuni bo‘lib o‘tgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilish mazmun mohiyatini universitet professor-o‘qituvchilari va talaba yoshlariga yetkazish maqsadida huquq-tartibot organlari xodimlari ishtirokida “Korrupsiya taraqqiyot kushandasi”, “Korrupsiya “Jamiyat tanasidagi saraton”” mavzularida davra suhbatlari tadbirlari tashkil etildi.



Tadbirlarga, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari vakillari - Surxondaryo viloyati prokuraturasi Uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi alohida muhim ishlar bo'yicha katta tergovchisi - Odilov Sherali Usanovich, Termiz shahar Adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i - Sayfuddinov Suxrob, Termiz shahar Adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti - Nazarov Vohid Raxmonberdiyevich, Termiz shahar Adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi xodimi - Odinakulova Yulduz Akmal qizi, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi "KAMELOT FEMIDA" advokatlik byurosi advokati Jabborov Abdusalim G'opporovich, Termiz shahar Adliya bo'limi "MADAD" NNT mutaxasisisi Xasanov Muzaffar Safarovich hamda "Yuridik" fakulteti Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi kafedrasida o'qituvchilari - Namozov Xusan Axmad o'g'li va Qurbonova Moxinur Baxtiyorovnalardan taklif qilindi.





Tadbirlar jarayonida ma'ruzachilar korrupsiyaga oid huquqbuzarlik harakatlarini sodir etilishi oldini olish maqsadida ishtirokchilarga O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli va "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RQ-931-sonli Qonunlarining, "O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-4761-son Prezident Qarorining, "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" Vazirlar Mahkamasining 829-sonli qarorining, Termiz davlat universiteti Kengashining 2023-yil 26-avgustdagi 1-son yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan "Termiz davlat universitetining ichki tartibi qoidolari" va "Odob-axloq kodeksi" hamda boshqa korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan meyoriy hujjatlar mazmun - mohiyati va ahamiyati tushuntirildi.

Shu bilan birga ma'ruzachilar, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muvofiq munosabatni shakllantirish bugungi kunda nihoyatda dolzarb masala bo'lib, bu borada nafaqat mas'ul idoralar, balki keng jamoatchilik ham hamjihat va hamfikir bo'lmog'i maqsadga muvofiqligini aytib o'tishdi. Shundan kelib chiqib, qayerdadir ta'magirlik, poraxo'rlik holatlariga duch kelsak, har birimiz bu noxush hodisaga nisbatan befarq bo'lmasligimiz, loqaydlik qilmasligimiz, aksincha, korrupsiya illatini tag tomiri bilan quritishga qaratilgan sa'y-harakatlarni vijdonan bajarishga kirishmog'imiz burch va mas'uliyatimizga aylanmog'i darkorligini ta'kidlab o'tishdi.



Shuningdek, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya holatlari bo'yicha xabar berish mumkin bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi - 1161 tezkor telefon raqami, O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligining - 1253 tezkor telefon raqami hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining va universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limlari aloqa kanallari xususida to'xtalishib, oliy ta'lim tizimida yuzaga kelayotgan huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha har qanday qonuniy xamkorlikka tayyor ekanliklarini ta'kidlab o'tishdi.

Bundan tashqari, ishtirokchilarga Odob-axloq qoidalariga rioya etishlari, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasliklari, mehnat shartnomasida ko'rsatilgan talablarga qat'iy amal qilishlari takidlab o'tildi.



Tadbirlar oxirida ishtirokchilarga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muvaffaqiyatli natijalarga erishgan xorijiy davlat tajribasi aks ettirilgan "Korrupsiyani yenggan mamlakat – Singapur mo'jizasi", "Qoloqlikdan gurkirab ketgan Singapur". "Singapur poraxo'rlikni qanday yengdi". "Li Kuan YU korrupsiyani yo'qotish stili bilan tanishish" sarlavhali hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi tomonidan "Korrupsiyaga qarshi kurashish", "Yoshlar korrupsiyaga qarshi" va "Jamiyatimizni korrupsiyadan birgalikda xalos etaylik" mavzularida tayyorlangan videoroliklar namoyish etildi.



Termiz davlat universiteti talaba yoshlari orasida “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi hamkorligida “Bo‘lajak kadrlarni halollik vaksinasi bilan emlash – davr talabi” mavzusida davra suhbatlari tashkil etildi

Joriy yilning mart oyida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori, O'zbekiston “Adolat” SDP Siyosiy Kengashi raisi va boshqa mutassadi vazirliklar tomonidan tasdiqlangan “O'zbekiston “Adolat” Tadbirga, Surxondaryo viloyati IIB Jinoyat qidiruv boshqarmasi korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish bo'limi tezkor xodimi - Nafasov Jamshid Qurbonovich, Advokatlar palatasi Surxondaryo viloyat hududiy boshqarmasi advokati – Irnazarov Shuxrat Najmiddinovich, “Adolat” SDP Surxondaryo viloyati Kengashi raisi o'rinbosari – Qurbonov Isroil Xamidovich va universitet “Yuridik” fakulteti Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi kafedrasida o'qituvchisi - Qurbonova Moxinur Baxtiyorovnalari taklif qilindi.

SDP Siyosiy Kengashi Ijroya Qo'mitasining qaroriga asosan vazirlik va idoralar tizimida “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi”ni o'tkazish bo'yicha ommaviy targ'ibot tadbirlari” reja-jadvaliga asosan 15-aprel kuni soat 16:30-da Termiz davlat universiteti “Yuridik” fakulteti faollar zalida oliygo'ha 110 nafar professor-o'qituvchilari va talaba yoshlari ishtirokida “Bo'lajak kadrlarni halollik vaksinasi bilan emlash – davr talabi” mavzusida ommaviy targ'ibot-tushuntirish tadbiri amalga oshirildi.



Tadbir jarayonida ma'ruzachilar huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan korrupsiyani oldini olish borasida olib borilayotgan ishlar, yoshlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, davlat idoralari va tashkilotlarida shaffoflikni ta'minlash, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining huquqiy asoslari, jamoatchilikning faol ishtirokini ta'minlash hamda korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari to'g'risida batafsil ma'lumot berishdi.

Tadbir yakunida ishtirokchilarga "Adolat" SDP Markaziy apparati tomonidan tayyorlangan "Ota nasihati" deb nomlangan ijtimoiy videorolik namoyish etildi.

